

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI VAZIRLAR MAHKAMASINING  
QARORI**

**SURXONDARYO VILOYATI SOG'LIQNI SAQLASH MUASSASALARIDA  
IXTISOSLASHTIRILGAN TIBBIY YORDAM KO'RSATISHNI YANADA YAXSHILASH  
CHORA-TADBIRLARI TO'G'RISIDA**

Respublika aholisiga yuqori malakali ixtisoslashtirilgan tibbiy yordam ko'rsatish uchun shart-sharoitlar yaratish, respublika ixtisoslashtirilgan markazlarining viloyat va tuman darajalaridagi tibbiyot muassasalari bilan kasalliklarni profilaktika, diagnostika qilish va davolash, Surxondaryo viloyati sog'lioni saqlash muassasalarining moddiy-texnika bazasini yanada rivojlantirish va mustahkamlash masalalaridagi o'zaro vertikal aloqasini mustahkamlash maqsadida Vazirlar Mahkamasi qaror qiladi:

1. O'zbekiston Respublikasi Sog'lioni saqlash vazirligi, O'zbekiston Respublikasi Davlat arxitektura va qurilish qo'mitasi hamda Surxondaryo viloyati hokimligining quyidagilar to'g'risidagi takliflariga rozilik berilsin:

Surxondaryo viloyat perinatal markazining bemorlar o'rni fondini 160 tagacha ko'paytirish, uni Surxondaryo viloyatining oftalmologiya shifoxonasi binolari va inshootlarida joylashtirish, shuningdek Denov, Sherobod, Sho'rchi, Boysun va Qumqo'rg'on tumanlari tibbiyot birlashmalarida perinatal bo'limlar tashkil etish;

Surxondaryo viloyat oftalmologiya shifoxonasini Surxondaryo viloyat perinatal markazi binolari va inshootlariga joylashtirish, uning bemorlar o'rni fondini 70 tagacha qisqartirish yo'li bilan uni optimallashtirish, shuningdek Denov tuman tibbiyot birlashmasida oftalmologiya bo'limi tashkil etish;

Surxondaryo viloyat ko'p tarmoqli tibbiyot markazi urologiya bo'limining bemorlar o'rni fondini 50 tagacha ko'paytirish, shuningdek Denov tuman tibbiyot birlashmasida urologiya bo'limi tashkil etish.

2. Quyidagilar Surxondaryo viloyati perinatal markazi, viloyat oftalmologiya shifoxonasi va viloyat ko'p tarmoqli tibbiyot markazi urologiya bo'limining asosiy vazifalari etib belgilansin:

viloyat va yaqin atrofdagi mintaqalar aholisining yanada samarali va yuqori texnologiyali diagnostika metodlariga, kasalliklarni ilg'or jahon yutuqlari darajasida davolash va profilaktika qilishga bo'lgan ehtiyojini ta'minlash;

tibbiy texnika va apparatlarning mavjud parkini doimiy ravishda yangilab borish va modernizatsiya qilishni ta'minlash, muassasalarni ixtisoslashtirilgan, yuqori malakali tibbiy yordam ko'rsatish imkonini beradigan zamonaviy tibbiy anjomlar bilan jihozlash;

muassasalarning tibbiyot xodimlari kasbiy darajasini shu jumladan mutaxassislarining yetakchi xorijiy tibbiyot o'quv muassasalari va klinikalarida stajirovkasini tashkil etish hisobiga doimiy ravishda oshirish va takomillashtirish;

mutaxassis vrachlarning o'z maktabini shakllantirish va rivojlantirish hamda viloyatning boshqa tumanlarini o'z sohasi bo'yicha yuqori malakali mutaxassislar bilan ta'minlash;

bemorlarni davolashning o'z ilg'or metodlari va texnologiyalarini ishlab chiqishga va tibbiy amaliyotga joriy etishga yo'naltirilgan ilmiy tadqiqotlarni o'tkazish;

sohaga oid yetakchi xorijiy tibbiyot muassasalari va markazlari bilan xalqaro hamkorlikni kengaytirish va mustahkamlash, axborotlar, to'plangan tajriba va mutaxassislar bilan keng al mashuvni ta'minlash.

3. Belgilab qo'yilsinki:

respublika ixtisoslashtirilgan ko'z mikroxirurgiyasi va urologiya markazlari tegishli ravishda Surxondaryo viloyatining oftalmologiya shifoxonasiga va viloyat ko'p tarmoqli tibbiyot markazining urologiya bo'limiga tashkiliy-metodik va ilmiy-amaliy yordam ko'rsatadilar;

Surxondaryo viloyat perinatal markazi, viloyat oftalmologiya shifoxonasi, viloyat ko'p tarmoqli tibbiyot markazi urologiya bo'limining bemorlar o'rni fondini optimallashtirish, shuningdek tegishli tumanlarning tibbiyot birlashmalarida ularning bo'limlarini tashkil etish Surxondaryo

viloyati sog‘liqni saqlash muassasalarining amaldagi bemorlar o‘rni fondi doirasida amalga oshiriladi.

4. Surxondaryo viloyat perinatal markazi, viloyat oftalmologiya shifoxonasi va viloyat ko‘p tarmoqli tibbiyot markazi urologiya bo‘limining binolari va inshootlarini (keyingi o‘rinlarda obyektlar deb ataladi) rekonstruksiya qilish bo‘yicha:

Surxondaryo viloyati hokimligi huzuridagi “Yagona buyurtmachi xizmati” injiniring kompaniyasi — buyurtmachi etib;

“Uyjoysanoatsuvqurilish” xususiy loyihalash korxonasi — bosh loyihalash tashkiloti etib;

o‘tkaziladigan tanlov savdolari natijalari bo‘yicha pudratchi tashkilotlar — bosh pudratchi tashkilotlar etib belgilansin.

5. Surxondaryo viloyati hokimligi O‘zbekiston Respublikasi Sog‘liqni saqlash vazirligi bilan birgalikda obyektlarni rekonstruksiya qilish bo‘yicha loyiha-smeta hujjatlarini bir oy muddatda ishlab chiqsin va ularning 2018-yil 1-sentabrgacha foydalanishga topshirilishini ta’minlasin.

6. O‘zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi huzuridagi budgetdan tashqari Ta’lim va tibbiyot muassasalari moddiy-texnika bazasini rivojlantirish jamg‘armasi mablag‘lari loyiha-smeta hujjatlarini ishlab chiqish, shuningdek obyektlarni rekonstruksiya qilish va jihozlash bo‘yicha moliyalashtirish manbai etib belgilansin.

#### *Oldingi tahrirga qarang.*

7. O‘zbekiston Respublikasi Sog‘liqni saqlash vazirligi O‘zbekiston Respublikasi Investitsiyalar bo‘yicha davlat qo‘mitasi bilan birgalikda obyektlarni yuqori texnologiyali tibbiy anjomlar bilan jihozlash uchun xorijiy kreditlarni va xalqaro moliya institutlari hamda boshqa xorijiy donorlar grantlarini jalg etish bo‘yicha tizimli ishlar olib borsin.

(*7-band O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2017-yil 21-avgustdaggi 651-sonli qarori tahririda — O‘R QHT, 2017-y., 34-son, 893-modda*)

8. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasini tomonidan tasdiqlanadigan ro‘yxatlar bo‘yicha, obyektlarni rekonstruksiya qilish doirasida chetdan keltiriladigan, O‘zbekiston Respublikasida ishlab chiqarilmaydigan tibbiy anjomlar, qurilish materiallari, asbob-uskunalar va butlovchi buyumlar 2018-yil 1-sentabrgacha bo‘lgan muddatga bojxona to‘lovlaridan (bojxonada rasmiylashtirish yig‘imlaridan tashqari) ozod qilinsin.

9. O‘zbekiston Respublikasi Davlat arxitektura va qurilish qo‘mitasi obyektlarni rekonstruksiya qilish bo‘yicha loyiha-smeta hujjatlarining davlat ekspertizasidan o‘z vaqtida o‘tkazilishini ta’minlasin hamda qurilish-montaj ishlarini bajarish sifatiga rioya etilishi yuzasidan zarur darajadagi davlat arxitektura-qurilish nazorati o‘rnatsin.

10. Mazkur qarorning bajarilishini nazorat qilish O‘zbekiston Respublikasi Bosh vazirining birinchi o‘rinbosari A.J. Ramatov zimmasiga yuklansin.

**O‘zbekiston Respublikasining Bosh vaziri A. ARIPOV**

Toshkent sh.,  
2017-yil 7-aprel,  
191-son

(*O‘zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to‘plami, 2017-y., 14-son, 232-modda, 34-son, 893-modda*)